SURXONDARYO VILOYATI BOYSUN TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 2-avgust | 122-8-110-Q/24 | Boysun tuman hokimligi

Davlat o‘rmon fondi yerlarida yong‘in xavfini oldini olish chora-tadbirlari to‘g‘risida

2024-yilda davlat o‘rmon fondi yerlarida yong‘in kelib chiqishi, tabiatga va o‘simlik dunyosiga zarar yetkazilishining oldini olish maqsadida Boysun davlat o‘rmon xo‘jaligining 2024-yil 27-iyundagi 01-02/36-sonli xatini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasining “O‘rmon to‘g‘risida”gi Qonuni, “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 22-noyabrdagi 506-son “Respublika o‘rmonlarini himoya qilish bo‘yicha ayrim me’yoriy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6-moddasiga asoslanib

Q A R O R Q I L A M A N:

1. 2024-yilning yoz, kuz fasllarida tumandagi davlat o‘rmon fondi yerlaridatamaki mahsulotlari chekish, ov qilish hamda gulxan yoqish qat’iyan man qilinsin.

2. Boysun davlat o‘rmon xo‘jaligi hamda uning bo‘limlarida yong‘ingaqarshi kurash chora-tadbirlari 1-ilovaga muvofiq;

2024-yilda Boysun davlat o'rmon xo'jaligining “Alachapon”, “Kengdala”, “Machay”, “Qo‘ng‘irot”, “Qizilnavr”, “Zovboshi”. “Ko`chatxona” va “Xomkon” o‘rmon bo‘limlarida favqulodda holatlarda yong'inni o‘chirish rejasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Boysun davlat o‘rmon xo‘jaligi (Sh.Ostanaqulov), “Alachapon” o‘rmon bo‘limi (B.Mengliyev), “Kengdala” o‘rmon bo‘limi (X.Abdurahimov), “Xomkon” o‘rmon bo‘limi (F.Mamayusupov), “Machay” o‘rmon bo‘limi (X.Eshonqulov), “Qo‘ng‘irot” o‘rmon bo‘limi (Q.Muhammadiyev), “Qizilnavr” o‘rmon bo‘limi (K.Rahmonov), “Zovboshi” o‘rmon bo‘limi (B.Norqobilov), “Ko`chatxona” o‘rmon bo‘limi (K.Temirov) “Qizilnavr” MFY, “O‘rta

Machay” MFY, “Yuqori Machay” MFY, “O‘rmonchi” MFY, “Chilonzor” MFY va “Avlod” MFY raislari yong‘in xavfini oldini olish bo‘yicha barcha tadbirlarni o‘tkazishga shaxsan ma’sulligi belgilab qo‘yilsin.

4. Boysun davlat o‘rmon xo‘jaligi (Sh.Ostanaqulov) va Boysun tuman Favqulodda vaziyatlar bo‘limi boshlig‘i (E.Halimov), tuman tibbiyot birlashmasi (B.Normamatov), “Uztelekom” AK Boysun tuman filiali (G‘.G‘afforov), “Alachapon” o‘rmon bo‘limi (B.Mengliyev), “Kengdala” o‘rmon bo‘limi (X.Abdurahimov), “Xomkon” o‘rmon bo‘limi (F.Mamayusupov), “Machay” o‘rmon bo‘limi (X.Eshonqulov), “Qo‘ng‘irot” o‘rmon bo‘limi (Q.Muhammadiyev), “Qizilnavr” o‘rmon bo‘limi (K.Rahmonov), “Zovboshi” o‘rmon bo‘limi (B.Norqobilov), “Ko‘chatxona” o‘rmon bo‘limi (K.Temirov) “Qizilnavr” MFY, “O‘rta Machay” MFY, “Yuqori Machay” MFY, “O‘rmonchi” MFY, “Chilonzor” MFY va “Avlod” MFY raislari birgalikda Boysun davlat o‘rmon xo‘jaligi hududlarida yong‘in sodir bo‘lganda tezda kechiktirmasdan yong‘inni o‘chirish uchun yetarli odamlarni jalb qilish va ularni asbob-uskunalar va oziqovqatlar bilan ta’minlash hamda tez tibbiy yordam ko‘rsatish choralarini ko‘rish vazifalari topshirilsin.

5. Boysun davlat o‘rmon xo‘jaligi (Sh.Ostanaqulov) va Boysun tuman Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘limi (K.Bo‘ronov), Boysun tumanidagi “Qizilnavr” MFY, “O‘rta Machay” MFY, “Yuqori Machay” MFY, “O‘rmonchi” MFY, “Chilonzor” MFY va “Avlod” MFY raislari o‘rmon xo‘jaligi hududlariga yaqin joyda yashayotgan aholiga o‘rmon xo‘jaligi hududlarida yong‘inni oldini olish bo‘yicha tushuntirish va targ‘ibot ishlarini olib borish hamda o‘rmon to‘g‘risidagi, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risidagi qonunlarni buzgan shaxslarga nisbatan hujjatlarni rasmiylashtirib tegishli organlarga taqdim etish vazifalari topshirilsin.

6. Tuman hokimligi axborot xizmati (Y.Xoliyorov), “Boysun” gazetasi (D.Oripov) tahririyati mazkur qarorning “Boysun” gazetasida rasman e’lon qilinishi hamda hokimlik veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

7. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan kuchga kiradi.

Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari S.Choriyev zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **B.Sh.Shukurov**

Boysun tuman hokimining
2024-yil 2-avgustdagi
122-8-110-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Boysun davlat o‘rmon xo‘jaligi hamda uning bo‘limlarida yong‘inga qarshi kurash chora-tadbirlari

T/r	**Amalga oshiriladigan ishlar**	**Bajarish muddati**	**Bajarishga mas’ullar**
1.	O‘rmonlarda va o‘rmon bilan qoplangan davlat o‘rmon fondi hududlarida yong‘in xavfsizligini ta’minlash uchun shaxsan javobgarlikni his etish, yong‘in bo‘lish ehtimoli kuchli davrda belgilangan yong‘in xavfsizligi tadbirlari va ishlarini bajarish, davlat o‘rmon fondi hududlarida chiqqan yong‘inni tezkorlik bilan o‘chirish va bu to‘g‘risida tegishli tashkilotlarga zudlik bilan xabar qilish	Mavsum davomida	Boysun davlat o‘rmon xo‘jaligi bosh o‘rmonbegisi, o‘rmonni saqlash va himoya qilish bo‘yicha muhandisi, o‘rmonbegilari
2.	O‘t-o‘lan bilan qoplangan yerlarda, qamishzorlarda, o‘rmonzorlar yaqinida shamolli ob-havoda gulxan yoqishni ta’qiqlash, yonib turgan narsalarni tashlash uchun maxsus joylarni tashkil qilish.	Mavsum davomida	Boysun davlat o‘rmon xo‘jaligi bosh o‘rmonbegisi, o‘rmonni saqlash va himoya qilish bo‘yicha muhandisi, o‘rmonbegilari, tuman FFB
3.	Boysun davlat o‘rmon xo‘jaligi o‘rmon fondi hududlarida yong‘in chiqqan holda, yong‘in chiqqan joyga ko‘ngilli yong‘in o’chirish bo‘linmalarini, belgilangan yong‘in o‘chirish ishchi kuchlarini o‘z vaqtida yetkazish, texnika va yong‘inga qarshi transport bilan ta’minlashni to‘g‘ri va aniq tashkil qilish	Mavsum davomida	Boysun davlat o‘rmon xo‘jaligi bosh o‘rmonbegisi, o‘rmonni saqlash va himoya qilish bo‘yicha muhandisi, o‘rmonbegilari, tuman FVB
4.	Chorva mollari boqiladigan, ov qilinadigan, beda o‘riladigan o‘rmonlarda, bolalar oromgohlarida, dam olish zonalarida va qo’riqxona hududidagi ekspedisiyalarida komplektlangan yong‘in o‘chirish qurollarini bo‘lishini nazorat qilish, Davlat o‘rmon fondi yerlariga yaqin yerlarda va unga olib boruvchi yo‘llar yoqasiga olovdan ehtiyotlik bilan foydalanishga chaqiruvchi yong‘in chiqish xavfidan ogohlantiruvchi belgilarni qo‘yish.	Mavsum davomida	Boysun davlat o‘rmon xo‘jaligi bosh o‘rmonbegisi, o‘rmonni saqlash va himoya qilish bo‘yicha muhandisi, o‘rmonbegilari, tuman FVB

5.	Ommaviy axborot vositalaridan keng foydalangan holda davlat o‘rmon qo‘riqchilariga tuman va qishloq aholisi o‘rtasida yong‘in xavfsizligi qoidalariga rioya qilish mavzularida targ‘ibot ishlarini olib borish	Mavsum davomida	Boysun davlat o‘rmon xo‘jaligi, “Boysun” gazetasi muharririyati
6.	Davlat o‘rmon fondi yerlarida ish olib boruvchi yoki o‘rmonlarda ba’zi ob’yektlarga ega bo‘lgan hamda o‘rmon fondi yerlarini ma’lum muddatlarga ijaraga olgan xo‘jaliklar, tashkilotlar, fermer xo‘jaliklari va alohida shaxs hamda fuqarolarni mavsumga tayyorgarliklarini tekshirish, aniqlangan kamchiliklarni birgalikda hal etish, qonunbuzilish holatlariga qat’iy choralar ko‘rish.	Mavsum davomida	Boysun davlat o‘rmon xo‘jaligi bosh o‘rmonbegisi, o‘rmonni saqlash va himoya qilish bo‘yicha muhandisi, tuman FVB
7.	Yong‘in xavfsizligi qoidalarini buzuvchilarni tezkorlik bilan aniqlash, ularni ustidan zudlik bilan tegishli hujjatlarni tuzib, keltirilgan zararni undirib olish choralarini ko‘rish, yong‘inga qarshi kurash maqsadida tezkorlik bilan harakat qiluvchi gurux tuzish uni xarakat yo‘nalishini belgilash va shu mavzuda joylarda seminarlar tashkil qilish	Mavsum davomida	Boysun davlat o‘rmon xo‘jaligi bosh o‘rmonbegisi, o‘rmonni saqlash va himoya qilish bo‘yicha muhandisi, o‘rmonbegilari, tuman FVB

Boysun tuman hokimining
2024-yil 2-avgustdagi
122-8-110-Q/24-son qaroriga
2-ilova

2024-yilda Boysun davlat o'rmon xo'jaligining Alachapon, Kengdala, Machay, Qo'ng'irot va Xomkon o'rmon bo'limlarida favqulodda holatlari yong'inni o'chirish REJASI

T/p	MFYlar	Joylashgan hudud		Yong'inga qarshi o'chirish asboblari			O'rmon bo'limlarining nomlari	Texnikalar soni	Shundan tashish mashinasi	Kerakli narsalar yuboriladigan joylar	Tibby yordam ko'rsatilishini tashkil etishda javobgar shaxs	Yong'in bo'yicha olinadigan aloqani tiklash bu javobgar shaxs	O'rmon b'limi boshliqlarining F.I.O	Yong'inni o'chirish bo'yicha javobgar shaxs	Texnika va yong'in o'chirish asbobuskunalarini olish joyi
		Jami	Shundan yong'in o'chirishga qatnashadi	Bolta	Arra	Belkurak									
1.	“O‘rmonchi" MFY	1275	200	50	100	50	Alachapon massivi	1	1	Mahalla fuqarolar yig'inlari, fermer xo'jaliklari	Tuman tibbiyot birlashmasi (T.Botirov)	“O‘zteleko m” AK Boysun tuman filiali (G‘.G‘affor ov)	B.Mengliyev, K.Temirov	O‘rmon inspektori M.Eshonqul ov, O‘rmon yong`in inspektori A.Xursando v	O‘rmon xo‘jaligi, mahallar fuqarolar yig‘inlari hududlaridagi omborlar hamda fermer xo‘jaliklari
2.	“Qizilnavr” MFY	1129	200	70	80	50	Kengdala,Qizilnavr	1	1				X.Abdurahimov K.Rahmonov		
							Machay						H.Eshonqulov		
3.	“O‘rta Machay” MFY, “Yuqori Machay” MFY	5025	470	130	120	220	Machay	1	1				H.Eshonqulov		
4.	“Chilonzor” MFY	4356	430	120	210	100	Xomkon	1	1				F.Mamayusupov		
5.	“Avlod” MFY	2579	330	100	120	110	Qo'ng'irot, Zavboshi	1	1				Q.Muhammadiyev, B.Norqobilov		